

SURXON VOHASI ERKAKLAR RAQSINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abujabborova Roziyo Sharofiddin qizi
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbek xalqining boy tarixiy o'tmishi, nomoddiy madaniyatining bir bo'lagi bo'gan Surxon vohasining qadimdan saqlanib kelayotgan raqs san'ati, xususan, voha yigitlari raqslarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Surxoncha raqslardagi harakatlarning boshqa hududlardagi raqs harakatlaridan farqlanishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Tarix, folklor, urf-odat, marosim, o'yin, raqs, ritm, xatti-harakat.

ОСОБЕННОСТИ МУЖСКОГО ТАНЦА СУРХАНСКИЙ ОАЗИС

Аннотация: В статье рассказывается о древнем танцевальном искусстве Сурханского оазиса, являющемся частью богатого исторического прошлого и нематериальной культуры узбекского народа, в частности, о специфических особенностях танцев оазисных мальчиков. Дана информация об отличии движений в танцах Сурханча от танцевальных движений в других регионах.

Ключевые слова: История, фольклор, традиция, обряд, игра, танец, ритм, поведение.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF SURKHAN OASIS MEN'S DANCE

Abstract: The article talks about the ancient dance art of the Surkhan oasis, which is a part of the rich historical past and intangible culture of the Uzbek people, in particular, about the specific features of the dances of the oasis boys. Information is given on the difference between movements in Surkhancha dances and dance movements in other regions.

Key words: History, folklore, tradition, ritual, game, dance, rhythm, behavior.

Raqs san'atining taraqqiyoti bevosita uni yaratgan xalqning tarixi va ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog'liq jarayon ekanligi bois, bu san'at tarixida ham uning aks etganligi borasida to'xtalib o'tish lozimdir. Shu vaqtgacha o'zbek raqs san'atida o'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lgan Xorazm, Buxoro va Farg'ona raqs maktablari tan olingan edi. Bugungi kunga kelib o'zbek raqs san'ati maktablari qatorida "Surxon raqs maktabi" ham tan olindi.

Surxon raqs maktabi boshqa hududlardagi raqs maktablaridan vohaning mahalliy kaolritini, oʻziga xos va oʻziga mos koʻrinishga ega ekanligini namoyon qilishi bilan alohida ajralib turadi. Xalq orasida barcha raqsar “Poybozi” (oyoq oʻyini) va “Qoʻlbozi” (qoʻl oʻyini)ga boʻlinadi. Bu tasnif yurtimizning Margʻilon, Fargʻona, Buxoro va Qoʻqon kabi madaniy markazlari raqsarida aniq koʻzga tashlanmaydi. Buning sababi Margʻilon, Fargʻona, Buxoro, Qoʻqon hududlaridagi mahalliy aholining madaniyati oʻziga xosligi bilan farqlanishidadir. Qolgan hududlarda lirik raqsarining ikki turga boʻlinishi ijrosida yaqqol koʻzga tashlanadi. Surxon raqsarini ijrosini ikki turga “Poybozi” (oyoq oʻyini) va “Qoʻlbozi” (qoʻl oʻyini)ga ajratish mumkin. Bunday raqsar Surxondaryo viloyatining Boysun tumani markazi va chekka qishloqlarida keng tarqalgan. “Qoʻlbozi” (qoʻl raqsar)lari guruhini Boysunda “Ufori kift” deb ham atashadi.



Boysun bahori xalqaro folklor festivall 2022-yil

Bu raqsarini ijro etayotganda raqqoslar qoʻllarini yengil musht tugib, koʻrsatgich barmogʻini yoki koʻrsatgich va oʻrta barmogʻini toʻgʻri tutadilar, turli harakatlar qilayotganda qoʻllar xuddi bir narsaga ishora qilayotgandek boʻladi. Baʼzi hollarda raqqos bir holatda toʻxtab qoladi va tanasining yuqori qismi, ayniqsa, barmoqlari bilan ishora qilishda davom etadi. Keyin u qoʻllarini koʻkragida chalishtiradi va boshini ikki tomonga tebratib turgan holda barmoqlarini koʻtarib tushirishda davom etadi.

Surxon raqsarida “Oyoq raqs” (Poybozi) lari faqat qoʻllar band boʻladigan raqsar guruhidagina qoʻllanmaydi. Qolgan barcha raqsarlarda “Oyoq raqs”dan foydalaniladi. Raqs ijro qilganda qoʻllar boʻsh boʻlishi ham mumkin, lekin qoʻl harakatlari ifodasiz, baʼzan qoʻllar beixtiyor koʻtarilib-tushib turgandek tuyuladi, chunki butun eʼtibor tananing pastki qismiga qaratilgan boʻladi. Oyoqlar tos va son boʻgʻimlari bilan birga harakat qiladi. Oyoqlar bukilgan holatda sakrashlar, oyoqlarni galma-galdan yuqoriga tashlash bilan almashib turadi, bunda yuqoriga koʻtarilgan oyoq uchlari yerdagi oyoqning tizzasiga yetadi. Xuddi shu holatda, faqat yerdagi oyoq tizzadan bukiladi, keyin sakrab-sakrab oyoqlar galma-galdan oldinga tashlab turiladi. Keyin raqqos oyoqlarini birlashtirgan holda joyida sakrab turadi.

Surxon raqs maktabida mahalliy kaloritni o‘zida jamlagan “Boysun mavrigi” raqsi alohida ahamiyatga ega. Bu raqs tuzilishi, harakatlari, mazmuni va ko‘rinishi bilan boshqa raqslardan katta farq qiladi. “Mavrigi” raqsi yakka raqqos tomonidan davra markazida ijro etiladi. Raqs davomida davra ishtirokchilari ham faol ishtirok etib o‘rtadagi raqqosning harakatlariga dalda berib, qarsak chalib turdilar. Surxon vohasida qadimda har qanday marosimda yakka raqqosni yetti nafar yoki to‘qqiz nafar yigitlar tiz cho‘kib doyra shaklida o‘rab turganlar. Bu davrani voha aholisi “qur” deb nomlaganlar. Qurda aynan yettita yoki to‘qqizta yigitning bo‘lishi, qadimdan turkiy xalqlarda 7 soni balo-ofatlardan qo‘riqlovchi, 9 soni esa baxt keltiruvchi deb tushunilganidan bo‘lsa kerak¹ deb yozadi Sh.Qurbonova “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyati” o‘quv qo‘llanmasida.

“Mavrigi” raqsida yakka raqqosga alohida hurmat ko‘rsatiladi. Chunki, qadimdan Surxon vohasi hududida erkak kishi biror-bir xislati, mardonaligi yoki boshqa hususiyatlari bilan nom chiqarmasa, unga to‘y va marosimlarda davra (qur)ga chiqib raqs tushishga ruxsat berilmagan. Bu odat Surxon vohasining Boysun, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo tumanlaridagi tog‘ oldi va tog‘li qishloqlarida 50-60 - yillargacha saqlanib kelingan. Bundan tashqari, qadimdan raqs ilohiy tushunchalar zamirida paydo bo‘lgan va bu tushunchalar ko‘pgina xalqlarda saqlanib kelayotgani ham Surxon raqs maktabi erkaklar raqslaridagi yakka raqqosga alohida hurmat ko‘rsatilishiga sabab bo‘ladi. “Mavrigi” raqsi “jazava” turkumidagi raqslarning eng mukammal namunasi hisoblanadi. “Mavrigi” raqsi Boysun tumani hududidan tashqari Oltinsoy tumanining Vaxshivor qishlog‘ida, Denov tumanining tog‘li hududlari bo‘lgan O‘shar, Sina qishloqlarida, Sariosiyo tumanining Dashnabod qishloqlarida ham saqlanib qolgan. Lekin bu hududlarning birortasida ham bu raqs Boysundagidek mukammal saqlanmagan.

Boysunning “Poybozi” raqslarida tog‘lik yigitlar – chidamli, chaqqon ovchi, cho‘ponlarning barchasi chayir mushaklarini harakatga keltirib raqs ijro etadilar. Boysunliklar yuqorida aytilganidek raqsning yana bir turi – “Poyi mashq”ni ham tilga oladilar. Bu guruh raqslarda raqqos qaddini keskin tiklaydi, yelkalarini pastroq tushiradi, qo‘llar esa o‘tkir burchak hosil qiladi, bilaklar yuqoriga ko‘tarilib, kaftlar oldinga qarab turadi, tizzalar ikki tomonga to‘liq ochilib, raqqos ancha past tushadi. Raqqos yigitning tanasi yassi tekislik ustiga uzala tushib olgandek bo‘ladi. So‘ngra hech qanday harakatlarsiz bir joyda “butun tana mushaklari” raqsi boshlanadi. Bunda faqat mushaklar ishlaydi. Bo‘yin pog‘onalari harakatga keladi, qoshlar uchiriladi, yelkalar esa bilinar-bilinmas titraydi, qo‘l mushaklari titrab, tovlanib turadi, qo‘l

¹Sh.Qurbonova, E.saidova “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyati” o‘quv qo‘llanmasida. 2022-yil.

uchlari aks sado kabi shu titroqni takrorlaydi. Keyin mushaklar titrog‘i butun tanaga o‘tadi.

Poyi mashqini qo‘l yoki oyoq raqsi deyish noo‘rindir. Chunki bu mushaklar raqsidir. Raqsning ijro qobiliyati raqqosning har bir mushagini harakatga keltirish qobiliyatiga bog‘liqdir. Bu raqs ijrosida raqqos mushaklar kuchini to‘g‘ri yo‘naltirishi va shunga yarasha nafas olish talab etiladi.

Surxondaryo viloyati tog‘lik aholisining raqs ko‘rinishlari shakli bo‘yicha buxorocha hamda tojikcha raqslarga o‘xshab ketadi. biroq ularning ijro uslubi butunlay boshqacha ya‘ni o‘z yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Bu raqslarda dekorativ holatlar tananing keskin egilishlari, umuman, tananing maxsus harakatlari kuzatilmaydi. Surxon vohasining dasht yerlaridagi xalqning hozirgi zamongacha yetib kelgan qadimiy raqslarida harakatlar turli xil emas. Butun raqs ijrosi ikki tomonga uzatilgan qo‘llar, tananing “yassi” holati, titrab turgan mushaklar, qo‘llar holatining keskin o‘zgarib turishidan iborat. Lekin bu harakatlarda juda ko‘p quvvat mujassamlashganligi tufayli tana mushaklariga yashiringan, jilovlangan kuch timsoli vujudga keladi.

Surxon vohasi erkaklar raqslarida qadimda qo‘llariga biror narsani olib raqs ijro etish urf bo‘lgan va bu raqs ham shu narsaning nomi bilan atalgan. Bularga “Pichoq o‘yin”, “Tayoq o‘yin”, “Choynak o‘yin”, “Tovoq o‘yin” kabilar misol bo‘la oladi.

“Pichoq o‘yini” – bu raqs Surxon vohasining jangovor raqslaridan biri bo‘lib, surnay va doira jo‘rligida ijro etiladi. Bu raqsni ijro qilishda raqqos belbog‘ida ikki pichoq hamda qo‘llarida ikki pichoq bilan davraga chiqadi. Qo‘lidagi pichoqlarning tig‘larini bir-biriga urishtirib, ritm chiqaradi va bir vaqtning o‘zida oddiy va murakkab harakatlarni ham bajaradi. Ikkita pichoqni yerga qadab, ularning o‘rtasida bir oyoq uchida turadi. Belbog‘idagi pichoqlarni chaqqonlik bilan olib tig‘ini o‘ziga qaratib ushlab xavfli burilish qiladi.

“Tayoq o‘yin” – bu raqs Surxon vohasining tog‘lik aholisi o‘rtasida “Duchava” raqsi ya‘ni “Yo‘rg‘a” usulidagi erkakcha raqsdeb yuritiladi va bu raqsning ijrosida ham surnaydan foydalaniladi. Raqs ijrosida qo‘liga ikkita tayoq ushlagan raqqos tayoqlarni barmoqlari o‘rtasida shunday o‘rnatadiki, ular bir-biriga urilib, ajoyib jaranglangan tovushlar paydo qiladi. Raqqosning chaqqonligi, shiddat bilan tayoqlarni o‘ynatishi, surnay honishiga moslashgani tomashaginning diqqat e‘tiborini tortadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Surxon vohasining qadimiy urf-odatlarini, marosim harakatlarini o‘zida mujassam etgan bunday raqslar xalq og‘zaki ijodining bir qismidir. Xalq og‘zaki ijodining bunday namunalari raqs san‘atining bir ko‘rinishi bo‘libgina qolmasdan xalqimizning turmush tarzi, dunyoqarashi, ruhiy-estetik olami, ichki kechinmalari yuksak badiiy ifoda ettirilgan qadriyat bo‘lishi bilan birga ajdodlarimizdan qolgan ulkan meros sifatida o‘zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi va umrboqiyiligi bilan san‘atning boshqa turlaridan ajralib turadi deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.Sayfullayeva, S.Zokirova, X.Xamidova “Merosiy raqs durdonalari” Toshkent. 2003 y.
2. H.Xursandov, Sh.Qurbonova “Surxon raqs maktabi” Toshkent. 2011 y
3. E.Saitova, N.Abrayqulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” Toshkent. 2015 y
4. M.Murodova “Xalq ijodiyoti” Toshkent. 2015 y
5. Sh.Qurbonova, E.saidova “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyati” o‘quv qo‘llanmasida. 2022 y
6. R.Abujabborova “Qadim Surxon raqslari haqida mulohaza” International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 3 | ISSN: 2181-4163. 2023y